

# 2015-yil - Keksalarni e'zozlash yili

Oliyjanob maqsadlar bilan 2015-yilga qadam qo'yar ekanmiz, biz uchun milliy o'zligimiz timsoliga aylanib ketgan kattaga – hurmat, kichikka – izzat, mehr-oqibat, shafqat va muruvvat kabi ezgu fazilatlarni yanada mustahkamlab, ularni jordan aziz farzandlarimizning ong-u shuuriga singdirishda kirib kelayotgan yil muhim, yuksak bir bosqich bo'lisligha ishonaman.

Islom KARIMOV

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

N:2 (67011)

2015-yil

12-yanvar

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

## 14-YANVAR – VATAN HIMOYACHILARI KUNI



Biz tinchlikning posbonlarimiz,  
Nurga to'lsin osmonlarimiz!

## OZOD YURTNING BEK BOLASI

Poytaxtimizdag'i 8-son bolalar musiqa va san'at maktabining 3-sinfida ta'lif olayotgan Bekzodjon NARIMONOVni «Marvarid» guruhi yakkaxoni sifatida yaxshi tanisiz. Yosh iste'dod egasi hozirda «Toshkent» teleradiokanalni «Toshkent vaqt» dasturining «Shirintoy» sahifasi boshlovchisi. Bekzodjon «Vatan himoyachilar kuni»ga atab «Vatanim» qo'shig'ini ijro etdi.



Bayram arafasida poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lim maktabida «Jajji askarlar» deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi. Unda boshlang'ich sinf o'quvchilari Vatanga muhabbat, burchga sadoqat, harbiy-vatanparvarlik mavzusidagi she'r, qo'shiqlarni mahorat bilan ijro etishdi. Tadbirda Qurolli Kuchlar faxriysi, shoir Iskandar Rahmon, Oqtepa mahallasi fuqarolar yig'ini faollari, aziz va tabarruk eksalar qatnashib. Vatan himoyasi – mugaddas burch, oliyjanob vazifa ekanini yana bir bor ta'kidlashdi.

O'z muxbirimiz



# MEHR ILDIZ OTGAN JOY

## izzat-u hurmat maskanidir

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22 yilligiga  
bag'ishlangan tantanali marosimda davlatimiz rahbari  
Islam Karimov 2015-yilni mamlakatimizda  
«Keksalarni e'zozlash yili» deb nom berishni taklif etdi.

Donishmand xalqimiz hamisha ezzulikka va yaxshiliklarga intilib yashaydi. Bu bizning qon-qonimizga, jonnimizga singib ketgan. Ayniqsa, mehrli bo'lish, ota-onani hurmat qilish, buvi va buvajonlarimizni e'zozlash, qadrlash, ularga g'amxo'rlik ko'rsatish ibratli fazillatlarimizdan biridir.

2015-yilning «Keksalarni e'zozlash yili» deb nomlanishi jamoatchiligidan, ayniqsa, o'quvchi-yoshchlarni yanada quvontirdi. Prezidentimiz ma'rurasida ta'kidlaganidek, «Bir o'ylab ko'raylik, «Qarisi bor uyning



parisi bor», «Qariyalar - xonadonlarimizning fayzi va farishtasi» degan maqol va hikmati so'zlarimizda qanday chuqur ma'no bor. Haqiqatan ham qaysi xonadonda nuroniy otaxon yoki onaxon bo'lsa, bu oilada, albatta, fayz-u baraka, farovonlik, ahillik

bo'lishini barchamiz yaxshi bilamiz».

Bugun tahririyatimizga maktub yo'llayotgan gazetxonlarimiz o'z takliflarini aytishmoqda. Jumladan, «Savob ishni har kim qilishi kerak, savob ishni har kun qilish kerak», degan shiorga amal qilib, atrofdagi yolg'iz keksalar holdidan xabar olish, ularga g'amxo'rlik ko'rsatish, og'irini yengil qilishni o'zlarining muqaddas insoni burchlari deb bilishmoqda.

Yana shuni mammuniyat bilan aytish mumkinki, Istiqlol yillarda O'zbekistonda uzoq umr ko'ruchilar soni yanada ortdi. Ayni paytda yurtimizda 225 ming nafr 80 yoshdan, 44 ming nafr 90 yoshdan oshgan mo'tabar bobolarimiz va momolarimiz istiqomat qilishadi. Eng quvonarli esa 100 yoshdan oshgan tabarruk qariyalarimiz 8 ming 700 nafarni tashkil etmoqda.

Bu shundan dalolatki, qalbi bola kabi beg'ubor keksalarimizning eng avalo, ertangi kunga katta ishonch bilan qarashi, ezgu niyati, qolaversa, davlatimiz, farzandlar, nabira va evaralari tomonidan ko'satilayotgan hayot ranglariga jilo beruvchi cheksiz mehr va muhabbatdir.

Ajdodlarimizning buyuk merosini, qadriyatlarimiz va urfatdarlarimizni yoshlarga yetkazish, ularni Vatanga muhabbat, kattaga hurmat, kichikka izzat ruhida tarbiyalashda ibrat bo'layotgan keksalarimizni har qancha ardoqlasak, boshimizga ko'tarsak arziyi. Chunki bizning barcha erishayotgan yutug'-u rag'batlarimizga ularning ulkan mehnatlari-yu beminnat duolari sababdir. Shunday ekan, xonadonimiz ko'rki, fayz-u barokati bo'igan buvijon va bobojonlarimizning cheksiz mehr biqqa hamisha qanot, qalbimizni doimo yuksaklarga chorlashi, shubhasiz. Zero, mehr ildiz otgan xonadonda hamisha izzat-u hurmat, ezzulik va ibrat yashaydi.

Feruza SOYIBJON qizi

## MUSTAQIL YURT BOLALARI IQTIDORLIDIR

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 62-IDUMI 9-sinf o'quvchisi Kamron Komilovni «Prezident asarlar bilimdoni» deb atasak arziyi. Yaqinda o'tkazilgan «Prezident asarlarini o'rganamiz» ko'rik-tanloving viyoyat bosqichida faxrlı 1-o'rinni egallab, respublika bosqichida qatnashish huquqini qo'lga kiritdi.

To'rt shart asosida tashkil etilgan mazkur bellashuvda Kamronning «Prezident Islam Karimov - O'zbekiston yangi milliy davlatchilik asoschisi» mavzusida tayyorlagan slaydlari hakamlar hay'ati tomonidan yuqori baholandi. Kamron o'zining ijodi ishida Prezidentimizning mustaqillikka erishish arafasida va Istiqlol yillarda amalga oshirgan ezgu ishlari va mamlakatimizning xalqaro hamjamiyatda munosib o'ren egallashi uchun olib borgan muvaffaqiyatlari faoliyatini atroficha yoritib bera oldi. Tarix va huquq fanlariga bo'lgan qiziqishi Kamronga ko'rik-tanloving yana bir sharti, ya'ni test savollariga javob berishda juda qo'l keldi va bu fanlardan fundamental bilimga ega ekanligi uning raqiblaridan ustunligini ta'minladi.

Tarix va huquq fanlariga bo'lgan qiziqish bu o'quvhida beshinchisinfadaligidayoq uyg'ondi. O'z ustida timmay ishlaydigan, tirishqoq bolakayning iste'dodini o'z vaqtida payqagan tarix fani o'qituvchisi Ilhom


Hamdamov o'quvchisi bilan darsdan bo'sh vaqtlarida mustaqil shug'ullana boshladidi va uni «Yosh tarixchi» to'garagiga jalb etdi. Astoyidil qilingan mehnat o'z natijasini berdi. 2011-2012-o'quv yilida «Bilimlar bellashuvi»ning respublika bosqichida 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

2014-2015-o'quv yilida Viloyat hokimi stipendiyasiga sazovor bo'ldi. Bunday natijalarga erishishda, albatta, maktab-internat jamoasi va ayniqsa, ustozlardan Ilhom Hamdamov, Mehriddin Qilichevning mehnatini e'tirof etish o'rni.

Kamron tarix va huquq fanlaridan tashqari ona tili va adabiyot, fransuz va ingliz tillari, matematika, iqtisod fanlariga qiziqadi, har bir fanni a'lo baholarga o'zlashtirib bormoqda. U hozirda fransuz va ingliz tillarida bemalol so'zlashha oladi. Kelajakda huquqshunos

bo'lishni orzu qilgan o'quvchi bilimini yanada boyitish, kelgusida o'z Vatani, xalqi uchun xizmat qiladigan mutaxassis bo'lish maqsadida timmay izlanmoqda.

Nurbek NURALI o'g'li



Sevimli xonandang bilan uchrashish, qiziqitirgan savollaringa javob olish, birgalikda jo'at bo'lib kuylashning zavqi o'zgacha bo'lsa kerak. Buni shahrimizning Yashnobod tumanidagi 198-maktab o'g'il-qizlari, ustozlaridan so'rang.

## IJODIY UCHRASHUVLAR DAVOM ETMOQDA



Bu yerda el suygan san'atkorlar Rixsi Ibrohimova, Erkin Komilov, xushovoz hofiz Orolmirzo Safarov, so'z ustasi Valijon Shamshihev, bolalarning sevimli adibi Xudoyberdi To'xtaboyev, yosh iste'doddardan Dilshodbek Kattabekov kabi ijodkorlar bilan bo'lgan uchrashuv o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

Yaqinda muktabda o'quvchilarga musiqa darsini o'tib berish Lola Yo'ldoshevaga nasib etdi. El sevgan san'atkor o'quvchilarga musiqa, qo'shiq ijtimoiy hayotda va inson madaniyatida o'ziga xos o'rning egaligini ta'kidlab o'tdi. Bolalarni birgalikda kuylashga chorladi.

Bu kabi ijodi uchrashuvlар o'quvchilarga quvonch baxsh etish bilan birga, go'zallikka intilish, bilim olish, mehnat qilishga undashi, shubhasiz.

Muzaffar AHMEDOV

Safda bir tekis borayotgan, shaxdam odimlaridan yer larzaga tushadigan harbiylar safida bo'lishni orzu qilmaydigan bola topilmasa kerak. Vatan himoyasi – bu ulug' shar!

Sobirjonning ham dilida zabit bo'lish orzusi paydo bo'lganida hali 6-sinfda o'qib yurgan kezlar edi. Anchagacha ko'nglidagini birovga aytishga uyalib yurdi. Nega, deya ajablanishingiz tablib. U sindoshlari orasida bilimdonligi bilan ajralib tursha-da, jismonyon tomonidan biroz orqada edi. Harbiy bo'lish uchun esa baquvvat, har tomonlama sog'lom bo'lish kerakligini yaxshi bilardi.

Bir voqe esa uning orzusi va istagini yanada alangalatdi. Buvasi sihatgohda dam olayotganda otasi bilan ko'rishga bordi. Shundoqqina tog' etagida joylashgan bu maskan niyoyatda xushmanzara, havosi ham musaffo ekan. Buvasi bilan anchagacha chaqchaqlashib o'tirishdi. U kishi bilan xonadosh

## ULUG' SHARAF

Akbar buvayam xushchaqcha odam ekan. Qiziq-qiziq voqealarni aytib berib, hammani rosa kuldirdi. Tabiatan kamgap Sobirjoni ham gapga solib ko'p narsani bilib oldi.

– Bolam, katta bo'lsang kim bo'lasan? – dedi Akbar buva unga mehr bilan qarab.

– Zabit bo'lamon, – dedi Sobirjon sira ikkilamyon, hali hech kimga aytishga botinmagan orzusini Akbar buvaga aytib



yuborganidan o'zi ham hayron edi.

– Zo'r-ku, – dedi bobo ko'zlarichaq nab. – Mening ikki o'g'ilim harbiy. Nevaralarim ham shu yo'lini tanlashgan. Ular yosholigidan chiniqishga zo'r berishadi. Sen ham shunday qilishing kerak. Eng asosiysi, erinch oq bo'limaslik kerak. Ertalab barvaqturib, badantarbiya qil, kun tartibingga jismoniy mashqlarni kiritib, ularni muntazam

bajarib borish payida bo'l. O'zingga talabchan bo'lsang, niyattingga, albatta, erishasan.

Bu gaplar bayram arafasida bo'lib o'tgandi. Sobirjon yangi yilni har yilgidan boshqacha boshladi. Uning darsxonasida yangi kun tartibi paydo bo'lidi. Erta uyg'onib, nonushtagacha ancha yumushlarni bajaradigan bo'lidi. Ancha vaqt o'tib o'zini ham ko'rdim. 9-sinfda o'qiyotgan ekan. Oldimda yelkalari keng, qo'llari baquvvat, bo'y-basti kelishgan o'spirin namoyon bo'lidi. Nigohlardida qat'iyat mujassam edi. Bu ko'zlarda o'ziga ishonch, mardonavorlik nurlarini ko'rgandek bo'ldim. Ko'nglimda allanechuk ililiq jilva qildi. Vatan himoyasiga munosib o'g'lonlar voyaga yetayotgani naqadar zavqli, shunday emasmi?

**Yusuf FAYZULLO**

## SANGZORLIK KULOL HUZURIDA

Qishki ta'til kunlarida Jizzax shahridagi 1-umum-ta'lif maktabi o'quvchilar Sangzor mahallasida joylashgan kulolchilik ustaxonasida bo'lischdi. O'quvchilar ish kiyimi o'ziga yarashib turgan ustakulol Fayzulla Jo'rabelev harakatlarini kuzatishar ekan, uning butun diqqat-e'tibori navbatdagi buyurtmani niyoyasiga yetkazishga qaratilgandi.

Ustaxona sahni saranjom-sarishta, tokchalarga terib qo'yilgan guldon, gul tuvaklari va turli haykalalmari ko'rib, beixtiyor hayratingiz ortadi. Bunda hatto XVI-XVII asrda ishlataligan sopol lagan, ko'za, kosa kabi uy-ro'zg'or buyumlarini uchratishining mumkin. Usta o'tmishdagi hunarmandchilik buyumlar haqida o'quvchilarga so'zlab berdi.

Kulolning shogirdlari har yili viloyat bo'yicha o'tkaziladigan barcha ko'rlik-tanlovlardaga gipsdan bezak uchun ishlataladigan koshinlar, naqshlar, kichik hajmdagi haykalcha va o'yinchoqlari bilan ishtirot etib kelishadi.

Ha, aytmoqchi, usta Fayzulla aka shahar maktablarida ham bo'lib, o'zi yasagan haykalcha va o'yinchoqlarni kichkitoylarga sovg'a qilib turadi.

**Feruza ABDULLAYEVA,**  
Jizzax viloyati



## BIZNING SEVIMLI NASHR

Maktabimiz Buyuk Ipak yo'li bo'yida, Elobod shaharchasida joylashgan. 350 nafar o'qevchi ta'lif olayotgan bu maskanda hamisha bahor, rang-barang gullar yashnab turadi.

Bizda ochiq darslar, bayram tadbirlari muntazam tashkillashtiriladi. Hatto respublika miqyosida «O'rgan, o'rgat» o'quv seminarini ham bo'lib o'tdi.

Maktab o'quvchilarini «Tong yulduzi» gazetasini sevib mutolaa qilishadi. Ayniqsa, men rahbarlik qilayotgan 2-«V» sinf o'quvchilarining 11 nafari bu nashrga yakka tarzda obuna bo'lischdi. Gazetaning navbatdag'i sonini sabrsizlik bilan kutayotgan o'quvchilarimidan A.Ashirbayev, S.Umrzagova, S.Ashirbayeva, D.Turganbayeva, A.Rejepova, O.Kenjebayeva, N.Sobirov, N.Sagidullayev hamda M.Shukurallayeva, G.Muratbayeva, D.Aytbayevdan iborat mazkur sinf faollari o'z tengdoshlarini kirib kelgan Yangi yil bilan muborakbos etadi.

**Bazargul SAPAROVA,**

Qoraqalpog'ston Respublikasi, Qo'ng'irot tumanidagi 52-umumta'lif maktabining 2-«V» sinf rahbari



## ENDI BIZ HAM «TONG YULDUZI» O'QIYMIZ

**deyishmoqda 1-«E» sinf o'quvchilarini**

Poytaxtimizning Sirg'ali tumanidagi 300-IDUM o'ziga xos an'analarga ega bo'lgan bilim maskanlaridan biri hisoblanadi. Uch mingga yaqin o'qevchi ta'lif olayotgan mazkur maktabning to'qqizta 1-sinflari navbatma-navbat savodxonlik bayramini o'tkazishdi. Har bir sinf tadbiriga puxta hozirlik ko'rgan, bayram ishtiroychilar o'tgan ikki chorak davomida oltan bilimlarini bor mahorat bilan ko'rsatishga harakat qildilar. 1-«E» sinf o'qevchisi Jamoliddin Solijonovning «Endi biz ham «Tong yulduzi»ni o'qiy olamiz», deyishi zaldagi mehnatlarning olqishiga sazovor bo'lidi. Lola Azimova rahbarligidagi o'quvchilar o'z chiqishlari bilan ota-onalar va ustozlariga o'zgacha zavq ulashishdi. Tadbir so'ngida o'quvchilarga

ajoyib ertak kitoblar va esdalik sovg'alari topshirildi.

**Alisher FAYZULLAYEV**

## BAYRAM ZAVOI

Mana, qishki ta'tilni mazza qilib o'tkazdik. Katta-yu kichikka birdek yoqimli bo'lgan Yangi yil bayrami zavqi hali tugagani yo'q.

Xonadonimiz fayzi bo'lgan buvijonimizni bayram bilan tabriklash uchun barcha qarindoshlar mehmon bo'lib kelishdi. Biz bolalar jam bo'lib, poytaxtimizning ko'rgi bo'lgan – Mustaqillik maydoniga yo'l oldik. U yerda chiroyligi bezatilgan ulkan archani ko'rib, dilimiz quvnadi.

Qishki ta'til kunlarida maktabimizda :«Bilimlar bellashuvining birinchi bosqichi o'tkazildi. Sinfimizdan men bilan birga to'rt nafar o'qevchi ona tili va adabiyot fanidan bellashuvda ishtirot etdik. Maqsadimiz, bilimlar sinovining respublika bosqichida ham qatnashib, ota-onamiz va ustozlarimiz ishonchlarini oqlash.

**E'zoza USMONXO'JAYEVA,**  
poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 34-umumta'lif maktabining 6-«V» sinf o'qevchisi



N. SULTONOV o'qigan surʼat

## USTOZDAN SOVG'A OLAMIZ

Gulchehra Ergasheva dars o'tayapti. Doskaga chiroyli qilib sana, mavzu yozilgan. U, avalo, o'quvchilaridan o'tilgan mavzuni o'yinlar orqali so'raydi. Yangi mavzuni o'zi yasagan turli ko'rinishdagi ko'rgazmalar vositasida tushuntiradi. O'quvchilarning bilmiga ishonch hosil qilgach, o'zlashtirishi qiyin o'quvchilar bilan alohida shug'ullanadi.

Tajribali muallimaning bugungi kunda H. Nazarova hamda H. Urdusheva kabi shogirdlari bor, ustozdan o'tmagan shogird shogird emas, deganlaridek bu yosh pedagoglar ustoz bilan yonma-yon zamon talablarini darajasida yosh avlodlarga ta'lim-tarbiya berib kelmoqda.

Muallima 26 yildirki, jaiji bolajonlarga o'qish va yoizishni o'rgatib kelmoqda.

Maktabsziz, bolalarsiz hayotini mukammal tasavvur etolmaydigan opa bir so'zni takror-takror aytil charchamaydi: «Kasbim – bu menin faxrim!»

– Kelajakda ustozim singari pedagog bo'lmoqchiman, – deydi faxlanib Xurshid Hakimov. – Men va sinfdoshlarim o'qituvchi kasbiga juda qiziqamiz.

Dam olish kunlari qo'shni bolalar bilan «O'qituvchi-o'quvchi» o'yinini o'ynaymiz. Men bunda doim o'qituvchi rolini bajaraman. Gulchehra opamday darsni tushuntirishga harakat qilaman, ustozim kabi hozirjavob «o'quvchi»ga darrov a'lo baho qo'yaman.

Darvoqe, o'qituvchimiz sinfdagi eng faol o'quvchilarini o'zi yasagan bejirim o'ynchoqlar bilan rag'batlantrib boradi.

Bolalarining beg'ubor dunyosida yashashni baxt deb bilgan Gulchehra Ergashevanning shiori shunday: «Maktab – men nafas olayotgan dunyo!» Eng muhim, mamlakatimizning kelajagi, tayanchlari voyaga yetapti. Gulchehra opa mana shunday hislarni dilidan o'tkazar ekan, maktabga, pedagoglarga humukumimiz tomonidan qaratilayotgan katta e'tiborni baxt, iqbol, saodat ramzi, deb biladi.

Nurbek QIDIRALIYEV

«Mustaqillik  
– menin taqdidi  
rimda» mavzusidagi  
«Barkamol avlod» bo'  
lalar festivalining res-  
publika bosqichida andi-  
jonlik ijodkor o'quvchi-  
yoshlardan ikki nafari  
faxrli o'rinni sohibi  
bo'lishdi.

## BALLI, NATASHA!

Poytaxtimizning Mirobod tumanida joylashgan 31-umumta'l'm maktabida Natasha ismli bir o'quvchi bor. 7-«V» sinfda tahsil olayotgan koreys millatiga mansub bu qizcha o'zbek tilida ravon so'zlay oladi.

Tarix, jismoniy tarbiya darslariga qiziqadigan Natasha o'zbek tilida darsida ham hozirjavob o'quvchilardan. Buning ustiga Sevinch, Madina kabi dugonalari uning o'zbek tilini o'rganishida eng yaqin ko'makchilari. Natasha Pak maktabida o'tkaziladigan tadbirlarda ona Vatan, yurtimiz tinchligi haqida she'rlar o'qydi. Bilingma chanqoq o'quvchisidan sinf rahbari Yevgeniya Vladimirovna ham minnatdor. U bo'sh vaqtlarida rasm chizishni xush ko'radi. Kelajakda stilist-dizayner bo'lishni orzu qilgan uddaburon qiz Yangi yil bayramida dugonalarinining sochini o'zi turmaklab qo'ydi. Orzularing amalga oshsin, balli, Natasha!



## SHAHRIXONLIK VAZIRA

Andijonning Shahixon tumanidan Vazira Zaynobiddinova badiiy ijodiyot yo'nalishidagi «Yosh musavvir» turkumida Iстиqlol yillarda erishilgan yutuqlar, ulkan bunyodkorlik ishlari, baxtil bolalik kabi betakror lahzalar aks ettirilgan rasmlari ko'rgazmasi bilan ishtirot etdi. Tumandagi 4-umumta'l'm maktabining 6-sinf o'quvchisi «Barkamol avlod» bolalar markazining tasviriy san'at to'garagi faol a'zosi. Uning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishida ustozni Asalxon Mashrapovaning o'ri beqiyos.

Tashkilotchilik, boshhovchilik qobiliyatiga ega bu qiz maktabi va Markazdagi tengdoshlari orasida o'z o'rni ega. Vazira voqelikni tez ilg'aydi, teran fikrlab, shunga yarasha munosabat bildiradi. U o'z ustida tinimsiz izlanadi. Ayniqsa, tasviriy san'atning qalamatsavir, rangtasvir yo'nalishlarida zavqlanib ijod qiladi. Jonajon o'lkamizning betakror tabiatni, maftunkor manzaralari unga ilhom baxsh etadi. Maskanda o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning faol ishtirotchisi. Yosh musavvir buyuk ajodolarimiz qoldirgan boy ma'naviy merosni o'rganishga, uni targ'ib qilishga astoyil bel bog'lagan. Iqtidorli o'quvchi «O'zligingandan aylanay, o'lkam», «Chimyon sadosi – 2014», «Bolalar va suv» respublika ko'rik-tanlovlarida ishtirot etib, g'oliblikni qo'lg'a kiritdi.

Shahixonlik Vazira kelgusida bilim va ko'nikmalarini yanada kengaytirib, zamonamizning eng ilg'or, fidoyi insonlaridan biri bo'lib yetishiga ishonamiz.



FERUZA

## OLMOS RISHTA



– O'g'lim, aytganlarimni olib keldingmi? – Sultanmurod aka farzandini shunday savol bilan kutub oldi.

– Ha, ota. Mana non, mayiz, turshak, yong'oq... – Baxtiyor qo'llidagi paketni baland ko'tarib ko'rsatdi.

– Bo'limasa yechinma, o'g'ling Anvarjon darsini tayyorlab bo'lgan bo'lsa, uniyam chaqir, kiyinsin, Olimjon amakingni ko'rib kelamiz, – dedi Sultanmurod aka.

Baxtiyor dasadasiga hayron bo'lib qaradi. Axit dasadasining ukasi ularga begona qilmaydigan yomonlikni

qilgan-ku.

Amakisi mushkul ahvolda qolganida Sultanmurod aka mashinasini sotib, ukasini qarzdan qutqargan edi. O'shanda amakisi:

– Rahmat, aka. Berganigiz menqa qarz, qaytaraman, – degan odam vaqt o'tib, olgan qarzidan tonib yubordi.

– Akam o'tirgan hovli otabobomizdan qolgan. Unda mening ham haqqim bor. Akamning bergan puli shu hovlidagi haqqim ustidan, – dedi.

Shu-shu aka-uka orasiga sovuqchilik tushgan, bordi-keldi to'xtagan edi. Nega endi dasadi birdan ukasinikiga boradigan bo'lib qoldi!?

Baxtiyor otasiga bu savolni bera olmadidi. Shu bois:

– Anvarjon, tur, Olimjon buvangni ko'rishga borar ekanmiz, – dedi.

Olimjon aka ham, ayoli ham ularni oradan hech narsa o'tmagandagi xursand qarshi olishdi. Ayniqsa, xastalanib, biroz rangi salqib qolgan

Olimjon aka ularni qayerga o'tkazishni bilmasdi, ko'zlar yosholandi, qo'llari duodan bo'shamadi. Qaytishda Baxtiyor jur'at qila olmagan savolni Anvarjon berdi.

– Buva, Olimjon buvam sizni xafa qilgan ekanlar-ku. Siz ularni kechirdingizmi?

– O'g'lim, jigarlar bir-biriga tabiiy mehr – olmos rishta bilan bog'lanadi. Bu mehrning umriga umr qu'shish vazifasi ham bizga omonat. Inson kechirimli bo'lishi kerak. Kechirimli inson hech qachon yutqazmaydi, – dedi.

Va anche yurgach Anvarjonдан:

– Nima demoqchi bo'lganimi tushundingmi, o'g'lim? – deb so'radi. Anvarjon boshini silkib:

– Tushundim, buvajon, – dedi.

*Qutlibeka RAHIMBOYEVA,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi*

## OUR FAVORITE LESSON

## (Biz yoqtirgan dars)

- said in Jizzakh city 22th of boarding school 1-«A» form pupils.

They learn English through listening, and learn by heart different poems and funny songs. The pupils are very active and their teacher Dilshoda Rahmatova teaches them with great interest. It's very enjoyable during the lesson, Mahmudov Foziljon and Alionova Dilnura are excellent pupils in the class.



## MODAL VERBS

## (Modal fe'llari)

## May and might

May hozirgi va kelasi zamondagi taxminni ifodalashda ishlatalidi va o'zbek tiliga «mumkin, balki» deb tarjima qilinadi.

**For example:** He may come to Tashkent in the summer.  
Take an umbrella with you. It might rain.

May/might ruxsatni ham ifodalaydi:

- May I sit here? - Yes, of course.



May I come in?

You may take my dictionary.

May/might bo'lishsiz gaplarda ham ishlatalishi mumkin:

**For example:** She may not know her address.  
Farkhod may not come to work tomorrow, he is ill.


 PICTURE GAME  
(Rasmlı o'yin)


Night



October



Mother's Day



Separate them into 3 groups:

In .....  
On .....  
At .....



Monsoon



Monday

 FIND THE SYNONYMS  
(Sinonimlarni toping)

Find the synonyms from these balloons, don't forget to translate and learn by heart them:

1. Ancient - \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_
2. Begin - \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_
3. Collect - \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_
4. Meaning - \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_
5. Gold - \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_



Ibrohim FAYZIRAHMONOV,  
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi  
54-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## Lesson 18

## FUNNY TESTS

1. I have ... cat. ... cat is gray.

- a) a/the      b) the/a      c) a/a      d) the/a

2. My book is ... the bookcase.

- a) under      b) in      c) on      d) at

3. What is ... name? - His name is Tom.

- a) my      b) you      c) his      d) her

4. Where ... Lilly's doll? - It ... in the bedroom.

- a) are/is      b) is/are      c) are/are      d) is/is

5. Jill and Lilly ... married.

- a) isn't      b) is      c) are      d) am

Gulnora TOSHQULOVA,  
Sirdaryo viloyati, Xovos tumanidagi 7-umumta'lim maktabining  
8-«A» sinf o'quvchisi

 EASY QUIZY  
(Boshqotirma)

## Jobs

What do these people do? Put a  in the correct box.

1. An artist

Draws pictures

Drives cars

Makes clothes



2. A gardener  
Builds the buildings  
Cooks meals  
Looks after garden

Iroda MIRZAYEVA,  
O'zDJTU talabasi

 SOLDIERS  
(Askarlar)

Crossing the world, ground, sea and air,  
Giving our country great care.



These mighty warriors helping us in times of need  
Doing us all a very good deed.

Defending and protecting from foreign invaders  
Traveling across mountains, deserts and glaciers.

Fighting along with our gallant flag  
Proudly raising it high, never letting it sag.

A rigorous job only fit for the best  
During their work they rarely rest.

Helping our nation prosper and grow  
These soldiers deserve a great big bow.

Umida UMAROVA

 TONGUE TWISTERS  
(Tez aytishlar)

Do tongue twisters twist your tongue?

A good cook could cook as much cookies,  
as a good cook who could cook cookies.

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

# «TONG YULDUZI» - MENING YULDUZIM

Tahririyatimizga o'quvchilardan keladigan maktublarning sanog'iqa yetib bo'lmaydi. O'z navbatida xodimlarimiz ham ularning birortasini e'tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qilishadi.

- Men she'r va maqola yozishga qiziqaman, har gal qo'limga qalam olsam, she'rimni qaysi gazetaga yuborsam ekan, degan o'y xayolimdan kechadi, - deya maktub yo'llabdi Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi 17-umumta'l'm maktabi o'quvchisi Inoyatoy Rahimova. - Mazkur yil uchun butun sinfimiz bilan sevimli nashrimiz «Tong yulduzi»ga obuna bo'ldik. Endi hech ikkilanmay sevimli gazetamga she'rlarimni yuboramani. «Tong yulduzi» mening yaqin do'stimga aylandi, desam xato bo'lmaydi.

Yangi yilda Inoyatoydan kelgan maktub barchamizni birday quvontirdi.



## BUVIJON, MEN SIZNI YAXSHI KO'RAMAN

Sho'xliklarim haddan oshadi ba'zan, Besabab injiqlik qilganimda ham. Beozor jilmayib qo'yasisiz har dam, Kechirib ketasiz, indamaysiz ham. Buvijon, men sizni yaxshi ko'raman.

Duolar qilasiz katta bo'lgan deb, Doimo salomat, o'ynab yurgin deb, Baxtli bo'lgan, deysiz, aqli, dono, Ening xizmatida bo'lgan doimo, Buvijon, men sizni yaxshi ko'raman.

**Inoyatoy RAHIMOVA,  
Xorazm viloyati, Qo'shko'pir  
tumanidagi 17-umumta'l'm  
mactabining 3-sinf o'quvchisi**

## SHE'RIYAT

Oltindan-da qimmatli, Saxyidrsan himmatli. Har bir satring hikmatli, Ma'nodirsan she'riyat.

Eng yaqin hamrohimsan, Sirdoshimsan she'riyat. Hayot yo'linda mangu, Yo'l doshimsan she'riyat.

**Jahongir NAMOZOV,  
Namangan viloyati,  
Pop transport va aloqa  
kolleji o'quvchisi**



## VATAN

Bayrog'ingni o'pib ardoqlab, Tuprog'ingni surtay ko'zimga. Oqlash uchun onam armonin, So'z bergenman o'zim-o'zimga.

Amir Temur, Mirzo Boburlar Vatan uchun to'kkun qonini. Onam aytgan ertakda Shiroq, Ado etgan shirin jonini.

Goh do'l yog'ar, goho yomg'ir, qor, Tunda kiprik qoqmay tik turgan. Shamolday, tez shiojat shaxti, Vatan nomin yurakka o'yan.

Berib qo'yamam qora bulutga, Yurtim tiniq osmonlaringni. Yovlar bilmas bizday yurtsevar, Vatan sevar posbonlaringni.

Qush uyada ko'rganin qilar, Ukalaram borar izmidan. Qo'lchasiida o'yinchoq quro, Men askarman, deb surar xayol.

Vatan nima, degan savolga, Vatan - bu yer, Vatan osmonim, Degan javob oldim ukamdan, U ertangi kunning posboni.

**Muhiddin UBAYDULLAYEV,  
Qashqadaryo viloyati,  
Nishon tumanidagi  
3-umumta'l'm mactabining  
6-«A» sinf o'quvchisi**

Esimda, bolaligimda Yangi yil arafasida quloch qalinlikda qor yoqqan edi. 3-sinfda o'qirdim, «Archa bayram»ni va Qorboboni orziqib kutardim. O'shanda men bolalikning ertaklar olamida yashardim, xayolimdagidan Qorbobo oq ot mingan, uning yonida afsonaviy Shahzoda bo'z otini gijginglatib turar, har ikki arg'umoq qanotli edi.

Ularning sovg'alarini qabul qilib olib, minnatdorchilik bildirganimdan so'ng, Shahzoda meni otiga mingashtirar, biz Qorbobo hamrohligida osmon-u falakka parvoz etib, tuni bilan bolalarga sovg'a ulashardik.

Bolalik ekanda, men o'z xayolimda, o'zim to'qigan ertaklarimga chippa-chin ishonardim. Aslida sovg'alarini mactabda Qorbobo rolini o'ynaydigan otam va institutda o'qidigan akam olib kelishar ekan.

Otamning Qorbobo ekanligiga butun maktab ishonardi-yu, birligina men ishonmasdim. Chunki boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lgan otam Qorboboning oppoq soqolmo'ylovini ham, uning sovg'a-salom to'la to'ra-xaltasini ham uyda tayyorlardi. Tabiiyki, bu mening nazarmidan chetda qolmas, otam Qorbobo ekanligiga sira ishonmasdim. Shu bois, qanotli ot mingan Qorbobo va afsonaviy Shahzoda haqida ertak to'qib, sindoshlarimga aytib berardim, ular ham ishonaqolishar, Yangi yil yana qadrli, quvnoq bayramga aylanardi.

## Qanotli arg'umoglar

Yangi yil  
hikoyasi



Archa bayramiga bir kun qolganida otam odatdagidek Qorbobo bo'lishga hozirlana boshladi. Men esa zo'r berib qanotli otlar, Qorbobo, Shahzoda haqida yangi ertak to'qishga kirishdim. Lekin negadir bu galgi ertagim juda g'amgin, diydalarim oldida turib qolgan arg'umoglar qanotsiz, Qorbobo va Shahzodaning chehrasini tund edi. Buning sababini hech tushunib yetolmadim.

Nihoyat, otam ertangi bayram uchun hamma narsani taxt qilib bo'lach, uchhalamiz sandal atrofida ovqatlanishga o'tirdik.

Otam o'sha, xayolimdagidan Qorboboga o'xshab horg'in, ma'yus edi. Piyloladagi choyga bir muddat tikilib turgach, onamga yuzlandi:

- Onasi, Yahyojonning (akam) eski boshmoqlari qayerda?

- Qayerda bo'lardi, qaznoqda chang bosib yotibdi.

- Shulardan kysi bo'ladijan bir juftini topib bersang...

- Eski boshmoqlarni nima qilasiz?

Onam taajjublandi-yu, darhol hovliga chiqib ketdi.

Oradan ko'p o'tmay, nirdoshgina bo'lsa-da, qo'nji baland bir juft boshmoqni olib keldi.

- Mana bu boshqa gap! - dedi otam poyabzalning u yoq-bu yog'ini aylantirib ko'rgach, - buni qorda ham, yomg'irda ham kysi bo'laveradi. Hozir moylab, yap-yangiday qilib qo'yaman!

O'z navbatida endi men ham hayron bo'ldim.

- Ota, menga buning keragi yo'q! Botinkamni hali kysi bo'laveradi.

Onam ham otamga savol nazari bilan qarab turardi.

- Bu senga emas, o'g'lim, - dedi otam «uf» tortib, - buni Bo'ron borku, mening sinfimda o'qiydigan,

o'shanga eltilib berasan. Qor yoqqanidan beri, uch kundirki, mactabga kelolmaydi, oyoq kiyimi yo'q ekan...

Nega bugungi ertagim mahzun ekanligini tushunib yetganday bo'dim.

Otam eski boshmoqlarni haqiqatan ham yangiday qilib moyladi. Men erta tongda uni qishloq chekkasida yolg'iz onasi bilan yashovchi Bo'ronga eltilib berdim.

Bo'ron poyabzalning u yoq-bu yog'ini aylantirib ko'rdi, so'ngra ko'ksiga bosdi.

- Ur-r-e! Yashasin! Men bugun mactabga boraman! Archa bayramiga boraman!.. - bolaning mungli ko'zlarida yosh mavjilandi.

O'sha kungi Yangi yil boshmida qiziqarli o'tdi. Bo'ron hamma bolalarga qo'shilib archa atrofini aylanlar ekan, onda-sonda o'zining yarqirab turgan yoq qiyimiga o'g'rincha nazar tashlab qo'yardi.

Shu kuni men ham juda yayradim. Endi negadir otam haqiqiy Qorbobo ekanligiga ishongim keldi...

\*\*\*

Men hamon ertaklar olamida yashayman. Bu ertaklarimni nevaralarimga aytib beraman. Ular diqqat bilan tinglashadi, eng muhim, ishoni shadi.

Kenja nevaram - ikki yashar Alisherbek archa o'yinchoqlariga talpinib, qiyqirib kuladi, qo'llarini baland ko'taradi. U ham oq arg'umoqda osmon-u falakka parvoz etayotgan bo'lsa, ne ajab?!

**Jo'ra FOZIL**

## FAQAT OLG'A, SHOHSANAM!



*Shohsanam Egamberdiyeva Andijon viloyatining Buloqboshi tumanidagi 16-umumta'l'm maktabining 7-«A» sinfida o'qiydi.*

Oilada uch naflar farzandning to'ng'ichi bo'lgan Shohsanam matabda ingliz tili, tarix, matematika fanlariga qiziqadi. Bo'sh vaqt topildi deguncha liboslar dizaynini yaratish ustida bosh qotiradi. Yosh iste'dod sohibi sportda ham o'z o'rniiga ega championlardan. Shohsanam salkam besh yilda beri ustozi Xolida Rahmonovadan karatening «Shotakan» yo'naliши sirlarini o'rganib keladi. Sportchi o'tgan yillarda davomida viloyat birinchingilida faxrli 3-, viloyat championatida 1-o'rin, O'zbekiston kubogida esa 2-o'rinni egallab, murabbiy ishonchini oqladi. Uning kelajakdagi orzusi mamlakatimiz bayrog'ini jahon arenalarida baland ko'tarib, yurt dovrug'ini dunyoga taratish.

Orzularing amalga oshsin, Shohsanam!



## UMID NIHOLLARI – 2014

Yaqinda Guliston shahar XTMFMT va TE bo'limiga qarashli 6-umumta'l'm maktabi sport bazasida boshlang'ich sinflar o'tasida badiy gimnastika bo'yicha «Umid nihollari – 2014» Guliston shahar ochiq turniri bo'lib o'tdi. Musobaqada jami 60 naflar sportchi-qizlar ishtirok etdi. Qizg'in va maroqli o'tgan mazkur turnirda shijoatli sportchilar arg'amchi, halqa, bulava hamda lenta va predmetsiz harakatda o'z mahoratlarni namoyish etishdi. Qizlarimizni kelajakda yetuk va har tomonloma mukammal inson qilib tarbiyalashdek maqsadni ko'zlagan ushu musobaqaqada mutlaq g'oliblik Muborak A'zamovaga badiy gymnastikaning halqa, Madina Abdusodirovaga halqa va arg'amchi, Mushtariy Habibiddinovaga halqa va lenta hamda Mohira Hurramovaga lenta turi bo'yicha nasib etdi. Madina Mamadalievaya, Dilnoza G'anayeva, Madina Bo'stonova, Nigora Zokirovalar 2-o'rinni egallashgan bo'lsa, 3-o'ringa Dilnoza Allayorova, Zulfiya Mamatqulova, Mastura Mahkamboyevalar loyiq topildi.

Viloyatda bu kabi musobaqalarning yuushtirilishi o'quvchi-qizlarning sportning bu yo'nalihsida tajriba almashishlarida alohida ahamiyatga ega.

G'oliblar Guliston shahar Madaniyat va sport ishlari bo'limi hamda Xotin-qizlar qo'mitasi diplom va esdalik sovg'alarini bilan taqdirlandi.

## FARG'ONALIKLAR XALQARO MAYDONLARDA

Bugungi kunda An'anaviy taekvando Federatsiyasi Farg'ona viloyat bo'limi olib borilayotgan ishlar diqqatga sazovor.

Asosiy faoliyati o'g'il-qizlar orasida sog'lom tur mush tarzini targ'ib qilish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat Markaz yoshlari so'nggi yillarda O'zbekiston championati va kubogi musobaqalarida yuqori o'rinnlarni egallab kelmoqda. Murabbiylar bugungi kungacha 2 naflar jahon championi, 1 naflar jahon championati sovindori, 3 naflar Osiyo championi, 4 naflar xalqaro musobaqalar g'oliblari va 15 naflardan ziyod O'zbekiston championiarini tarbiyalashdi. Sportchilar o'tgan davr mobaynida ko'plab yuqurlarni qo'liga kiritishdi.

Vyetnamda bo'lib o'tgan Osiyo championati musobaqasida Botir Bahodirov kumush va bronza medallariga sazovor bo'lgan bo'lsa, Baxtiyor Odilov bronza medalini qo'liga kiritdi. Shuningdek, 2014-yilda Gollandiyada o'tkazilgan xalqaro musobaqada Asadbek Nabiyev 1-o'rin,

Turkiyada o'tkazilgan xalqaro musobaqada Bobir Sobirjonov va Asadbek Hakimov 1-o'rin, Kiprda o'tkazilgan xalqaro musobaqada Azamat Nishonov 2-o'rinni egalladi.

O'tgan yili erishilgan muvaffaqiyatlardan yana biri Italiyaning Rim shahrida o'smirlar o'tasida o'tkazilgan jahon championatida eng og'ir vazn toifasida ishtirok etgan sportchi Baxtiyor Odilov kumush medal sovindori bo'ldi.

Markazda «Keksalar ni e'zozlash yili» munosabati bilan chekka hududlarda yashaydigan aholi uchun sport mashg'ulotlari tashkil etish, keksalar va qariyalarni sog'lomlashtirish ishlarni yuushtirish, ayollar va yoshlar o'tasida tizimli sport musobaqalarini tashkillashtirish masalalari rejaga kiritildi.

Nabijon TEMIROV,  
Muhammadsodiq ALIMOV  
tayyorlashdi

## TINIMSIZ MASHG'ULOTLAR SABAB...

Qachonlardir Qashqadaryo viloyatining chekka Pomuq qishlog'ida ko'cha changitib, o'rtoqlari orasida g'olib chiqib, tushganda g'olib chiqib, ko'nglda allanechuk ilq tuyg'ular uyg'onib, astoydil quvongan bola bir kun kelib o'z yurti bayrog'ini katta shohsupalarda balandga ko'tarishga mayussar bo'lishini kim o'yabdi, deysiz.

Qahramonimizning bunday yuqurlarga erishishida poydevor vazifasini o'tagan Buxoro tuman maxsus sport maktab-internati va u yerdagi o'qituvchi-murabbiylar bo'lajak yosh championdag'i qitorni ilg'ab, bor g'ayratlarini sarflab, Sardor Jangeldiyevni respublika va xalqaro musobaqalar sari yetakladilar.

Sardor Buxoro tuman maxsus sport maktab-internatinining 5-sinfiga barcha imtihonlarni muvaffaqiyatlari topshirib, qabul qilingan kunini quvonib eslaydi. Xushxulqligi bois, tezda tengdoshlari va murabbiylari e'tiborini qozondi. Tinimsiz mehnat va uzluksiz mashg'ulotlar yuzo sportchiga omadlar eshigini ochdi.

O'tgan yillarda turli respublika turnirlar hamda viloyat birinchingiliklarda g'oliblikni qo'liga kiritgan.

2014-yil Andijon shahrida o'tkazilgan respublika birinchingilida 42 kg. vazn toifasida 2-o'rinni qo'liga kiritib, mutaxassislar e'tiborini qozondi.

Buxorolik navqiron kurashchi Sardor Jangeldiyevning g'alabaları oldindan. Vatanimiz bayrog'ini jahon shohsupalarida ko'p bora ko'tarishiga ishonamiz. Ayni paytda mas'uliyatlari vazifani ado etishda unga kuch-g'ayrat, shijoat tilaymiz.

Shukrulla G'ULOMOV



## CHANADA UCHAMIZ


Ey, bolalar, kelingiz,  
Biz yasanag tepaga.  
Qiyaligin ko'ringiz,  
Rosa mosdir chanaga.

Kelmay qolmang uyalib,  
Yo'qdir deya chanamiz.  
Bizda borin dam olib,  
Galma-galdan uchamiz.



## SAYRA, ZAG'IZG'ON

Bir sayragin zag'izg'on,  
Uyga kelsin ko'p mehmon.  
Shokolad, konfetlardan,  
Onam yozsin dasturxon.



## BIZNING DILA

Mening dadam quruvchi,  
Oyim esa tikuvgi.  
Akam jasur, mard o'g'lon,  
Vatanga turar posbon.

Mening o'zim bog'bonman,  
Bu tuproqni sevaman.  
Daraxtlar hosil berar,  
Ko'nglim mehnatdan to'lar.

Oilamiz quvonchi,  
Ahillikka undaydi.  
Ota-onam ishonchi,  
Bizni doim qo'llaydi.

**Bekzodjon HAMIDULLAYEV,**  
poystaxtimizdag'i 219-umumta'l'm  
mabitining 4-«A» sinf o'quvchisi

## «AQOLLI» PULT

Ota uuda televizor ko'rib o'tirardi. Xonaga 4 yoshli Hojiakbar kirdi. Ikkovlashib yovvoyi hayvonlar hayotidan lavhalar tomosha qila boshlashdi. Shu payt ayonda telefon jiringlab qoldi. Ota qo'llidagi televizor pultini divanga qo'yib, qo'ng'iroqqa javob berish uchun chiqdi. Qaytib kirma, televizor o'chiq. Ota farzandini so'rroqqa tutdi:

- O'g'lim, televizorni nega o'chirding?

- Men o'chirganim yo'q...
- Xonada sendan boshqa hech kim yo'q-ku...
- Hojiakbar biroz o'ylanib turdi-da, qo'llidagi pultni ko'rsatdi:
- Dada, televizorni mana bu pult o'chirdi.

Jamshid RASULOV

8



### Muassislari:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati  
Markaziy Kengoshi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lgan xalqaro sariya fondi.

Bosh muharrir  
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

Haydar MUHAMMAD,  
«Do'stlik» ordeni sohibi

## YONG'OOQ QOQISH

Amakim yong'ooq qoqar,  
Oh yong'ooq! Bizga yoqar.

Duv-duv tushar yong'oqlar,  
Terib olar o'rtoqlar.

Chaqib yesang, mag'izli,  
Non-mi, deysan jizzali.

Soqqasini tanlaymiz,  
«Qubba»-«Qubba» o'ynaymiz.

Amakim yong'ooq qoqar,  
Oh, yong'ooq! Bizga yoqar.

## KO'NGIL GULSHANI

### Aziz bolajonlar!

Biz yoshi ulug'larni qanchalik hurmatlasak, e'zozlasak, ertangi avlod ham bizlarni shunday qadrlaydi. Shu xayollar og'ushida o'tirganimda, xonaga doimiy muxlislarimizdan biri, bo'kalik 90 yoshi Saidikrom ota kirib keldi. U kishining g'ayrat va shijoatini ko'rib, havasimiz keldi. Chunki otadagi hayotga bo'lgan muhabbat, jo'shqinlik bizni zavqlantirdi-da. Har bir so'zidan, o'gitidan olam-olam saboq oldik. So'z gavharlaridan ba'zilarini sizga ham ilindik:


• • •  
O'qigan inson o'tirib ham olamni ko'radi, o'qimagan yurib ham dunyoni teran ko'z bilan ko'ra olmaydi.

Ko'ngillarning sururi ilmdandur,  
Ko'rар ko'zlar nuri ilmdandur.

Hamisha yaxshilarni izlab yashadim.

Qayda yaxshi odam bor desalar,  
erinmadim. Borib ularning suhbatini oldim. Bildimki, inson umri davomida yaxshilarni izlab, ulardan saboq olib yashashi kerak ekan.

Saidikrom SAIDMAHMUDOV



«Eski shahar ko'chalari»



«Qish manzarasi»

Nafisa Nazarova Buxoro shahridagi 39-IDUM 7-«A» sinf o'quvchisi. U mo'yqalam yordamida ona shahri manzaralarini, ertak qahramonlarini tasvirlaydi. Nafisaning beg'ubor qalbi musiqaga-da hamohang. Skripka kuylari orqali ko'ngil go'zalligi, hayratlarini qog'ozga tushiradi. «Kamalak yulduzlar - 2014» tanlovi viloyat bosqichi faol ishtirokchisining orzulari bir olam. U kelajagi buyuk yurthing munosib farzandini bo'lishiga ishonadi.

## BOSHQOTIRMA

Quyidagi kataklarga mos keladigan qushlar nomini yozing.

Q			
U			
Sh			
L			
A			
R			

Iqbol MALIKOVA

12-yanvar 2015

TAHIR HAY'ATI:  
Omonulla YUNUSOV,  
Abdug'an XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Sobitxon TURG'UNOV,  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Feruza JALILOVA,  
Sa'dullo TURSINOV,  
(Bosh muharrir o'rinnbosari),  
Feruz MATYOQUBOV.  
(mas'uu kotib)

Navbatchi  
muharrir  
Yusuf  
ABDULLAYEV  
Rassom  
Feruzbek  
KAMOL o'g'li

Manzilimiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08  
Tel./Faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
NMUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi - 44000  
Buyurtma - S 1822